

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SYUJET DINAMIKASI VA XRONOTOP UYG'UNLIGI

Pardayev To'liqin Xasan o'g'li

Alfraganus universiteti, o'qituvchi.

e-mail: tolqinpardayev580@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7445-6831>

Annotatsiya.

Maqolada badiiy asarning mavzusi, fabula, g'oya va syujet kabi tarkibiy komponentlar yozuvchi ijodiy konsepsiyasini ifodalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Davr va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlar, turli kolliziyalar hamda psixologik ziddiyatlarning syujet dinamikasi va xronotop uyg'unligini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ong oqimi, modernizm va postmodernizm kabi adabiy yo'nalishlarning badiiy tafakkur rivojidadagi o'zaro tutashuv nuqtalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: sayyor syujet, xronotop, syujet dinamikasi, ong oqimi, modernizm, postmodernizm, ohanglar, mafkura, kinoyaviy-parodik usul.

ДИНАМИКА СЮЖЕТА И ГАРМОНИЯ ХРОНОТОПА

Пардаев Толқин Хасан угли

Университет Alfraganus, преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируется роль таких компонентов художественного произведения, как тема, фабула, идея и сюжет, в раскрытии авторской творческой концепции. Рассматривается влияние сложных взаимоотношений эпохи и человека, разнообразных коллизий и психологической напряжённости на формирование динамики сюжета и гармонии хронотопа. Особое внимание уделяется точкам соприкосновения таких литературных направлений, как поток сознания, модернизм и постмодернизм, в развитии художественного мышления.

Ключевые слова: странствующий сюжет, хронотоп, динамика сюжета, поток сознания, модернизм, постмодернизм, тональность, идеология, иронически-пародийный приём

PLOT DYNAMICS AND THE HARMONY OF THE CHRONOTOPE

Pardayev To'liqin Xasan o'g'li

Alfraganus University, Lecturer.

Abstract.

The article examines the role of the thematic, plot, and ideological components of a literary work in expressing the author's creative concept. It analyzes how the complex relationship between the individual and the historical era, various conflicts, and psychological tension contribute to the dynamics of the plot and the harmony of the chronotope. The study also explores the intersections of literary movements such as stream of consciousness, modernism, and postmodernism within the evolution of artistic thought.

Keywords: wandering plot, chronotope, plot dynamics, stream of consciousness, modernism, postmodernism, tonal patterns, ideology, ironic-parodic technique.

Kirish. Inglizabon yozuvchilar, Amerika va Yevropa xalqlari adabiyoti vakillarining ijodida ana shu estetik tanlov bir-birini to'ldiruvchi mohiyatni ilgari suradi. Vaqtning oliy nizomi – o'zligini anglash va Allohni tanishga bo'lgan ichki ehtiyoj ko'plab yozuvchilar qahramonlarida Odam Ato va Momo Havodan buyon avlodlarga o'tib kelayotgan turli xil ziddiyatlar qamrovida oydinlashib boradi. Bular nimalarda ko'rinadi? Avvalo, insonning botiniy olamini so'z orqali ifodalay biladigan tafakkur sohiblari asarlarida reallashadi.

O'rta asrlar ingliz nasrining oltin davrida yaratilgan "sayyor syujet"larning ko'pchiligida sarguzashtnoma-fantastik yo'sindagi qissago'ylarning romantik o'y-xayollari bilan to'lib-toshgan asarlar juda ko'p yaratildi. Chunki ularda hayot haqiqatiga qahramon sifatida yondashish, ulug'vorlik, antik yunon ritsarlik romanlari va eposlari balandligida qarash, tragik vaziyatlarda obro'li odamlar qurshovida qolish instinkti yuzaga chiqadi. Bular keyingi davrlar nasri uchun "xamirturush" vazifasini o'tagani shubhasiz. Poetik shaklning barqarorlashuvi o'z-o'zidan sodir bo'lmaganidek, biror xalq adabiyoti ta'siriga tushib qolish uslubni ham, voqelikni ham bir xillashuviga olib keladi. Bunday holatlar tarix sahnasida tez-tez uchrab turadi. Negaki, tarix qachonlardir o'z takrori bilan qiymatini namoyon etib, mafkuraviy bo'shliqning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Agar bordi-yu, biror yozuvchi o'z davrining og'riqlarini oldindan ko'ra bilsa, sezsa, his etsa va

qandaydir "ohanglar"ga yo'g'rilgan asarlar bita boshlasa, demak, uning noyob qobiliyati hali yillar davomida boshqa xalqlar adabiyoti uchun juda ko'plab badiiy masalliqni berishga qodir ekanini isbotlab ketgan bo'ladi.

XX asrning tongotarida inson ruhiyati bilan bog'liq voqealarga boy badiiy asarlar juda ko'plab yaratildi. Ta'sir, ko'lam va badiiy shartlilik modifikatsiyasi ana shu davrning o'ziga xos mezonlaridan biriga aylandi. Chunonchi, badiiy g'oyaning ajralmas halqasi bo'lgan ingliz nasrining oltin qoidasi, ya'ni hukmron kuchlar ta'sirida jamiyatning qoloqlashuviga nisbatan to'g'ridan to'g'ri antipatiya reallashirildi. Jon Steynbekning **"Sichqonlar va odamlar"** qissasidagi tasvir polifoniyasi ana shu ko'p qirrali epizodlar galereyasini yodimizga soladi. Qissadagi kinoyaviy-parodik diskurs insonning mantiq farzandi ekanini ishonch hosil qiladi.

Hozirgi kunda o'zbek adabiyotiga shiddatli ong oqimini joriy etgan Luqmon Bo'rixonning **"Jaziramadagi odamlar"** romanida ingliz va Yevropa nasriga xos tasvir tendensiyalarining o'ziga xos qiyofasini kuzatamiz. Yozuvchi Luqmon Bo'rixon 2000-yillar o'rtalarida ana shu romanni o'zbek o'quvchilariga tuhfa qilar ekan, jahon nasrining hali o'zbek adabiyotiga ta'sir doirasining nechog'li ko'p qirrali ekanligini namoyon etadi.

****"Adabiyotshunoslik lug'ati"***da: "Syujet personajlarning "harakat"laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir. Shu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab syujetning ikki tipi ajratiladi: a) "tashqi harakat" dinamikasiga asoslangan syujet; b) "ichki harakat" dinamikasiga asoslangan syujet. Birinchi tipdagi syujetlarda personajlarning biror maqsad yo'lidagi xatti-harakatlari, kurashi, to'qnashuvlari, hayotdagi burilishlar tasvirlanadi va shu asosda ularning taqdiri, ijtimoiy mavqeyida muayyan o'zgarishlar yuz beradi. Bu nav syujetlarda voqea to'laqonli tasvirlanadi va o'z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Syujetning ikkinchi tipida voqealar o'z holicha emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etib, asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatida burilishlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi".*

Yozuvchi L. Bo'rixon asarlarida syujetning ikkinchi turi, ya'ni **"ichki harakat"** dinamikasini ifodalash yo'sinlari ko'zga tashlanadi. Bir qarashda oddiy voqelikdan ham umuminsoniy masalalarni olib chiqish usuliga erishilgani ko'zga tashlanadi. Bu esa kinoyaning yanada chuqurlashuvini taqozo etadi.

Kinoyaviy usul xronotopi. Psixanalitikada tasvir usullarining kinoyaviy shartlanganlik moduslari mavjud. Unda san'atning, matndagi voqelikning yozuvchi ijodiy iqtidori va talanti bilan turli tasvir kriteriyalariga hamohangligi idrok etiladi. Masalan, bu haqda so'z borganda, f.f.d. M. Sheraliyeva shunday yozadi: *"Ideallashtirilgan "men" aslida reallikda mavjud bo'lmagan, inson ongidagi obraz bo'lib, u ijtimoiy-axloqiy me'yorlarni soxta talqin qilish, ulardan faqat bittasini mutlaqlashtirish, chegaralash yoki atayin tor tushunish orqali yaratib olinadi. Ideallashtirilgan obraz soxta ideal asosida yuzaga keladi, soxta ideal esa mavjud shart-sharoitlar bilan hisoblashgan, ularga moslashgan holda ideal talablarni tanlash va amal qilishni anglatadi. Bu o'rinda mavjud holatning nobop jihatlariga qarshi qo'yilgan (haqiqiy) ideal bilan ana shu nobopliklarga moslashish, ular bilan kelishuvga borish asosida tanlangan (soxta) idealni farqlash kerak bo'ladi. Inson nobop sharoitga moslashganligi (mavjud "men")i haqidagi tasavvurni ongli hayotidan quyiga — ong ostiga tushirib yuboradi, o'zini faqat ideallashtirilgan obraz holida ko'radi. Ideallashtirayotganidan bexabar holda o'z holatini me'yor deb hisoblaydi. Demak, inson ongidagi ideallashtirilgan obraz o'z ijtimoiy-axloqiy me'yorlaridan chekinmaganlik illyuziyasidan boshqa narsa emas".*

Keltirilgan manbaga asoslansak, haqiqatan ham har bir soxta tushuncha — mafkura, tuzum hamda zamon talablari targ'ibot va tashviqotga evriladi. **"Jaziramadagi odamlar"** romanida konseptual ifoda tig'izligi yozuvchining haqiqiy qahramonning ideallashtirilgan soxta "men"i, pirovardida esa ana shu tamoyilning yuzaga chiqishiga turtki bo'lgan holatlar yig'indisini badiylashtirishida namoyon bo'ladi:

"O'sha parishon, ma'yus ko'zlar taftishchilar tinkasini quritib ketgan dasturxon atrofida, sovxoz idorasining maxsus mehmonxonasida o'zgacha, sho'xchan porladi. Masrur va mamnun qiyofadagi oqsoq direktor aroq sipqorib, sovub qolgan sarqit oshdan ishtaha bilan qoshiqlab-qoshiqlab og'ziga tiqdi.

O'shanda men biznikidan kelib qolgan idish-tovoqlarni yig'ishtirib ketish uchun chekka stullarning birida betoqat o'tirar edim.

Idoraning maxsus mehmonxonasi ivirsib, to'zg'ib ketgan. Keng-mo'lgina xonaning o'rtasiga qator qo'yilgan uch-to'rt stol ustiga to'shalgan oppoq dasturxon tomgan-to'kilgan yegulik-ichkiliklar kasridan dog'-dug' shimib yotibdi. Stol-stullarning ostiga sochilib ketgan papiros qoldiqlari, g'ijim-g'ijim qog'oz parchalari, bo'm-bo'sh shishalar ko'ngillarni behuzur qiladi. Bu yerda o'sha "Uchlar ittifoqi" to'rt-besh kun tillarini tanglaylariga yopishtirgan taftish tafsilotlarini muhokama qilib o'tiribdi".

Yozuvchining **"Jaziramadagi odamlar"** romanida kinoyaviy-parodik usul orqali aniq makon va zamoni ko'rsatilmagan **41-sovxoz** hayotidan hikoya qiluvchi cho'lquvarlar haqida so'z boradi. Bu romanda shahardan qishloqqa kelin bo'lib tushgan Lolaxonning achchiq qismati hikoya qilinadi. Romanda syujet chiziqlari dinamik tus oladi. Aslida, badiiy syujet har bir asarning yurak tomiri bo'lib, u butun asarni fabulasidan xotimasigacha muvofiqlashtirib turadi.

Yozuvchi romanda ikki xil tasvir vositasini uyg'unlashtira oladi. Hikoyachi — Samad obrazi aslida yozuvchining juda o'rinli o'ylab topgan qahramonlaridan biridir. Jon Steynbek esa muallif tilidan hikoya qilar ekan, qissa arxitektonikasida kinoyani tasvir usulining yetakchi tendensiyalarini yuzaga chiqarishga yo'naltiradi. Ong ostida kechayotgan psixologik vaziyatlar har ikkala yozuvchi ijodiy konsepsiyasining juda katta topilmalaridan biri desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Yana bir muhim adabiy siymolardan biri Uilyam Folknerning taqdiri azob va mashaqqatlarda o'tadi. U o'zining Nobel mukofoti taqdimoti ma'ruzasida o'zi yaratgan adabiy olam va adabiy konsepsiyani shunday tushuntiradi: "Adabiyot insonga matonat bag'ishlashi kerak. Insonni yengib o'tishga va yengishga o'rgatishi kerak... Inson nafaqat dosh beradi, balki yengib ham o'tadi... Adabiyotning, yozuvchining bosh vazifasi ana shu yengib o'ta olishni ko'rsatish va

tasvirlashdir...”.

Jon Steynbek, Ernest Xeminguey va Uilyam Folkner singari XX asr Amerika adabiyotining yirik namoyandalari inson ruhiyatini tasvirlash, murakkab ijtimoiy ziddiyatlarni ochib berish hamda badiiy tafakkurning yangi shakllarini yaratishda o'ziga xos yo'ldan borganlar. Ularning ijodida insonning ichki kechinmalari, yolg'izlik, begonalashuv, ma'naviy tanazzul va hayot uchun kurash masalalari turli poetik vositalar yordamida yoritiladi. Xususan, Folknerning polifonik bayon usuli, Xemingueyning “aysberg tamoyili” va Steynbekning ijtimoiy-psixologik realizmi inson tabiatini turli rakurslarda anglash imkonini beradi. Shu ma'noda, badiiy asarga yondashuvning o'ziga xos, shartli ravishda harbiycha “yurish”ga qiyoslanadigan qat'iy va maqsadli usuli o'zbek nasrida Luqmon Bo'rixon yaratgan qahramonlar xarakterida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi inson ruhiyatini tashqi voqelik bilan to'qnashuv jarayonida tasvirlar ekan, mavjud tuzumning “sarqit”lari, ijtimoiy tengsizlik va ma'naviy bosim aslida insonning murakkab badiiy olamini kashf etish uchun muhim motivlar yaratishini ko'rsatadi:

– Bilasanmi, Slim, xayolimga bir narsa keldi, Kandiyning iti shu darajada keksaydiki, oyoqlari tanasini ko'tara olmay qoldi. Keyin, juda badbo'y. Qachon xonaga kirsam, ikki-uch kun burnimdan hidi ketmaydi. Nega Kandiya itini o'ldirishni aytmasan, senikilardan birontasini olib katta qiladi. U it yaqinlashishni boshladimi, burnim hiddan burishishni boshlaydi. Og'zida tish degan narsa qolmagan, ko'zlari ko'rmayapti, ovqatini chaynay olmaydi. Kandi uni sut bilan boqadi. Boshqa hech narsani yeyolmaydi.

Jorj ko'zlarini Slimdan uzmasdi. To'satdan qo'ng'iroq chalini boshladi, dastlab sekin chalindi, keyin tezlashdi va nihoyat, qo'ng'iroq urishi bitta ovozga aylandi. U qanday kutilmaganda boshlangan bo'lsa, shunday birdan to'xtadi.

– *Qo'ng'iroq chalindi, – dedi Karlson.*

Tashqaridan o'tayotgan odamlarning ovozi eshitildi. Slim viqor bilan sekin o'rnidan turdi.

– *Qani, yigitlar, ovqat tugamasidan boraylik. Ikki daqiqadan so'ng hech narsa qolmaydi.*

Karlson Slimga yo'l berdi, keyin ikkalasi ham chiqib ketishdi.

Keltirilgan lavhada yozuvchi insonning nafaqat boshqa odamlar, balki tabiat va uning beozor mavjudotlariga bo'lgan munosabatini ham ochib beradi. Kandiyning qari iti oddiy jonivor sifatida emas, balki kuchdan qolgan, jamiyat uchun “foydasiz” deb topilgan insonning ramziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Itning qarib, ko'rmay, tishlari to'kilib, mustaqil oziqlana olmay qolishi uning tabiiy hayotiy jarayonini ko'rsatsa-da, ferma ishchilari nazarida u ortiqcha yuk, noqulaylik va badbo'ylik manbaiga aylanadi. Shu jihatdan, jonivorga nisbatan bildirilgan shafqatsiz munosabat jamiyatdagi manfaatparastlik, kuchlilarning hukmronligi va zaiflarning qadrsizlanishi kabi ijtimoiy hodisalarni ramziy ifodalaydi.

Mazkur epizodda har bir qahramon o'z qalbidagi yashirin istak, qo'rquv va ma'naviy pozitsiyani namoyon etadi. Karlson itni o'ldirishni amaliy va tabiiy yechim sifatida ko'rsa, Kandi uchun it ko'p yillik sadoqat, do'stlik va xotira timsolidir. Slim esa voqeaga vazminlik bilan munosabat bildirib, jamoada axloqiy hukm chiqarish vakolatiga ega shaxs sifatida ko'rinadi. Jorjning kuzatuvchan holati esa keyingi fojiali voqealarni oldindan sezdiruvchi psixologik detal vazifasini bajaradi. Shu tariqa, qisqa dialog zamirida insoniy rahm-shafqat, majburiyat, tanlov va o'lim masalalariga oid murakkab axloqiy ziddiyat mujassamlashadi.

Asardagi qari itning o'ldirilishi bilan Lenni taqdirining yakuni o'rtasida muayyan ramziy va kompozitsion parallellik mavjud. Kandi o'z itini begona kishining qo'li bilan o'ldirishga rozi bo'lganidan keyin bundan chuqur afsuslanadi va uni o'zi o'ldirishi kerakligini aytadi. Bu holat Jorjning keyinchalik Lenni haqida qabul qiladigan qaroriga ma'naviy-psixologik zamin yaratadi. Demak, it bilan bog'liq epizod syujetning tasodifiy qismi emas, balki kelajakdagi fojiaga ishora qiluvchi badiiy retrospeksiya va bashorat vazifasini bajaradi. Yozuvchi shu yo'l bilan bir qarashda ikkinchi darajali bo'lgan voqeani butun asarning g'oyaviy markaziga bog'laydi.

Lenni esa kuchuklarni ataylab suvga tashlab yubormaydi, balki o'z jismoniy kuchini nazorat qila olmagani sababli kuchuklardan birini beixtiyor o'ldirib qo'yadi. Mazkur holat uning qalbidagi yovuzlikni emas, aksincha, sodda tabiat va ulkan jismoniy kuch o'rtasidagi fojiali nomutanosiblikni ko'rsatadi. Lenni yumshoq narsalarni silashni, hayvonlarga mehr ko'rsatishni istaydi, biroq o'z harakatining oqibatini to'liq anglamaydi. Shuning uchun uning kuchukka bo'lgan munosabati shafqatsizlik emas, balki nazoratsiz kuchning fojiaiy natijasi sifatida baholanishi lozim. Bu esa obrazning ichki ziddiyatini yanada chuqurlashtiradi: u mehribon bo'lishni xohlaydi, ammo bilmasdan o'zi sevgan mavjudotlarga zarar yetkazadi.

Yozuvchi ferma ishchilarining hayotini tasvirlash orqali inson mavjudligining ijtimoiy va ma'naviy chegaralarini ham ochib beradi. Ular doimiy mehnat qiladi, biroq barqaror hayot, oila va shaxsiy makonga ega emaslar. Ularning aksariyati bir fermadan ikkinchisiga ko'chib yuradi, vaqtinchalik ish haqi evaziga kun kechiradi va kelajakka bo'lgan ishonchini asta-sekin yo'qotadi. Bunday sharoitda “yeb-ichish”, qorin to'yg'izish va bir kunlik ehtiyojlarni qondirish yashashning asosiy maqsadiga aylanib qoladi. Natijada insonning ma'naviy ehtiyojlari, orzu va umidlari moddiy yetishmovchilik hamda ijtimoiy beqarorlik bosimi ostida so'na boshlaydi. Shu bilan birga, ferma ishchilarining bir-biriga bo'lgan munosabatida ham ziddiyatli holat kuzatiladi. Ular umumiy qismat va mehnat sharoiti bilan birlashgan bo'lsalar-da, o'zaro yaqinlik va birdamlikni to'liq shakllantira olmaydilar. Ayrim qahramonlarda bir-biridan o'ch olish, kuchsizlarni kamsitish, o'z mavqeini boshqalardan ustun qo'yish hamda yashirin tajovuzkorlik kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi. Buning sababi ularning tabiatan yovuzligida emas, balki doimiy ijtimoiy bosim, yolg'izlik va hayotiy istiqbolning

yo'qligidir. Steynbek inson xarakteridagi salbiy jihatlarni shaxsiy illat sifatida emas, ko'pincha muhit va ijtimoiy tuzum hosil qilgan ruhiy holat sifatida tasvirlaydi.

Ana shu iztiroblar Jon Steynbek badiiy tafakkurida oddiy mehnatkash insonning umumlashma xarakterini yaratish istagini kuchaytiradi. Uning qahramonlari individual belgilarini saqlab qolgan holda, Buyuk depressiya davridagi millionlab ishsiz, uysiz va ijtimoiy himoyasiz kishilarning umumlashgan timsoliga aylanadi. Jorj, Lenni, Kandi, Kruks va boshqa obrazlarning har biri yolg'izlikning alohida ko'rinishini ifodalaydi. Jorj do'stiga mas'ullik tufayli erkinlikdan mahrum, Lenni ruhiy ojizligi sababli jamiyatga moslasha olmaydi, Kandi qarilikdan qo'rqadi, Kruks esa irqiy kamsitilish tufayli jamoatdan ajratilgan. Shunday qilib, asarda yolg'izlik individual holat emas, balki butun ijtimoiy muhitga xos umumiy fojiga aylanadi.

Bu jarayonda kinoya ham muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Qahramonlar kichik yer sotib olish, o'z xo'jaligiga ega bo'lish, hech kimga qaram bo'lmay yashash haqida orzu qiladilar. Biroq ularning orzulari voqelikning shafqatsiz qonunlari bilan to'qnashadi. Aynan orzu va reallik o'rtasidagi keskin tafovut asarning tragik kinoyasini yuzaga keltiradi. Qahramonlar baxtga yaqinlashgandek tuyulgan paytda fojiaiy burilish sodir bo'ladi va orzu amalga oshmaydigan xayol sifatida qoladi. Bu holat yozuvchining inson umidiga nisbatan mutlaqo pessimizmini emas, balki adolatsiz ijtimoiy tuzum sharoitida oddiy inson orzularining naqadar zaif ekanini ko'rsatadi.

Mazkur tasvirlarda xronotop usuli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ferma makoni bir tomondan konkret geografik hudud sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan qahramonlarning ruhiy qamalganligini ifodalovchi ramziy muhitga aylanadi. Makonning torligi, bir xilligi va vaqtinchaligi ishchilarning hayotiy imkoniyatlari ham cheklanganini ko'rsatadi. Zamon esa Buyuk depressiya davrining iqtisodiy va ijtimoiy beqarorligi bilan belgilanadi. Shu tariqa, makon va zamon bir-birini to'ldirib, qahramonlarning taqdirini belgilovchi yaxlit badiiy tizimni yuzaga keltiradi.

Xronotop makonning zamondagi aksini namoyish qilish bilan birga, zamonning muayyan makonda qanday ijtimoiy va ruhiy vaziyatlar shaklida ro'y berishini ham reallashtiradi. Ferma ishchilarining kundalik hayoti ish qo'ng'irog'i, ovqatlanish vaqti, mehnat jarayoni va qisqa dam olish oralig'i bilan qat'iy tartibga solingan. Bu tartib ularning shaxsiy hayoti va erkinligini cheklab, insonni ishlab chiqarish jarayonining oddiy bo'g'iniga aylantiradi. Qo'ng'iroqning dastlab sekin, keyin tezlashib, birdan to'xtashi ham mexanik hayot ritmini ifodalovchi akustik detal sifatida namoyon bo'ladi. U qahramonlarning vaqt ustidan hukmron emasligini, aksincha, vaqt va mehnat tartibiga to'liq bo'ysunganini anglatadi.

Ayni paytda, qahramonlarning tushunarsiz va beqaror hayot tarzi asar leytmotivida syujetning dinamik xilma-xilligini ta'minlaydi. Dialoglar esa obrazlarning tabiati, yashirin niyatlari va ruhiy holatini ochib beruvchi yetakchi badiiy vositaga aylanadi. Steynbek uzun mualliflik izohlaridan ko'ra, qahramonlarning qisqa replikalari, sukuti, nigohi va harakatlariga ko'proq semantik yuklaydi. Masalan, Jorjning Slimdan ko'z uzmasligi uning oddiy kuzatuv holatini emas, balki ichki xavotir, fikriy zo'riqish va axloqiy tanlovga tayyorlanish jarayonini anglatadi. Natijada o'quvchi personajlar ruhiyatini tayyor izohlar orqali emas, ularning nutqi va xatti-harakatlarini mustaqil tahlil qilish orqali anglaydi.

Shunday qilib, keltirilgan lavha asarning umumiy g'oyaviy-estetik tuzilishida muhim o'rin egallaydi. Unda qari itning taqdiri orqali qarilik, ojizlik, ortiqchalik, rahm-shafqat va majburiy tanlov muammolari yoritiladi. Jonivorga nisbatan munosabat, aslida, insonning insonga bo'lgan munosabatini ochib beruvchi axloqiy mezonga aylanadi. Qahramonlarning dialoglari, makon va zamon birligi, ramziy detallar hamda fojiaiy kinoya orqali yozuvchi o'quvchini inson hayotining qadr-qimmat, mehr-shafqatning chegarasi va jamiyatning zaif kishilar oldidagi mas'uliyati haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 289–290.
2. Sheraliyeva M. *Hozirgi o'zbek nasrida kinoya*: filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zFA, 2017. – B. 14–15.
3. Luqmon Bo'rixon. *Jaziramadagi odamlar*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 24.
4. Nazar Eshonqul. *Mendan "Men" gacha*. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 321.